

TILNING MUKAMMAL TADQIQI YO'LIDAGI ILMIY-NAZARIY QARASHLARI TADRIJI

Boshmanova Dildora Maxram qizi

Qo'qon davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Gmail:dildoraboshmanova8@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hozirgi o'zbek tilshunosligining yetakchi tilshunos olimlaridan biri professor Nizomiddin Mahmudovning o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi, ilmiy-nazariy qarashlari va uning ilmiy merosiga nisbatan qisqacha mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, til taraqqiyoti, tilshunoslik tarixi, struktur tilshunoslik.*

Abstract. *In this article, one of the leading linguists of modern Uzbek linguistics, professor Nizomiddin Mahmudov, made a brief comment on the incomparable contribution to the development of Uzbek linguistics and his scientific heritage.*

Key words: *linguistics, language development, history of linguistics, structural linguistics.*

Ma'lumki adabiy til har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi vositadir. Hozirgi kunda tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarining yuzaga kelishi, matn muammosining o'rganilishi bilan bog'lik ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad - nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'lik bo'lgan lingvomadaniy masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsada, biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas.

O'zbek tilshunosligining yetakchi va zabardast vakillaridan biri Nizomiddin Mahmudov - o'zining butun hayotini ilm-fan ravnaqi va o'zbek tili taraqqiyotiga bag'ishlab kelayotgan tilshunos olimlardan biri. Jamiyatimiz hayotida ona tilimizning o'rnini oshirishga astoydil xizmat qilayotgan Nizomiddin Mahmudov o'zbek tilining turli masalalariga bag'ishlangan 80 ga yaqin darslik, 400 ga yaqin ilmiy-ma'rifiy mavzularga oid maqolalar, shuningdek, bir qancha o'quv qo'llanmalar muallifidir. Ayniqsa, tilshunos olimning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi"(1995), "O'zimiz va so'zimiz"(1997), "Ma'rifat manzillari", "So'z estetikasi"(1981), "O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya" (1984), "Gapda forma va mazmun"(1984), "O'zbek tilda ish yuritish"(1990), "O'zbek tilini o'rganamiz. Rasmiy lug'at"(1991), "Til va madaniyat"(1992), "O'zbek tilining mazmuniy sintaktikasi"(1992), "Turkcha-o'zbekcha, o'zbekcha-turkcha lug'at"(Toshkent,1993, Anqara,1998), O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis"(1995), "Til"(1998), "Ma'rifat manzaralari"(1999), "Komillik kaliti. Ma'naviyatdan o'zbekcha-ruscha-ingilizcha lug'at"(1999, 2006), "O'qituvchi nutqi madaniyati"(2009), "Tilimizning

tilla sandig'i"(2011)[1] deb nomlangan kitoblari va o'quv qo'llanmalari bugungi kunda tilshunosligimizda katta ahamiyatga ega asarlardan hisoblanadi.

Nizomiddin Mahmudov 1951-yilda Farg'ona viloyatining Buvayda tumanida tug'ilgan. 1974-yilda ToshDUning o'zbek filologiyasi fakultetini bitirdi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'zbek tili kafedrasining sobiq mudiri. Hozirgi kunda O'zR FA Alisher Navoiy nomli Til va adabiyot instituti direktori lavozimida ishlab kelmoqda. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha izlanishlar olib borgan. Bir qator ilmiy ishlari AQSH, Turkiya, Ozarbayjon kabi xorijiy mamlakatlarda chop etilgan. Shuningdek, o'rta maktablarning V-IX sinflari uchun "Ona tili" dasrliklari muallifidir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Metodik qism

Tadqiqot materiallari va usullari

Professor Nizomiddin Mahmudov o'zbek tilshunosligining leksikologiya, semasiologiya, onomastika, nutq madaniyati, uslubshunoslik va leksikografiya sohalari bo'yicha qator salmoqli ishlar yaratdi. Olimning o'zbek nutq madaniyati va o'zbek leksikologiyasi sohasidagi faoliyati – ushbu yo'nalishlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ham salmoqlidir.

Tilshunos olim Abdulhamid Nurmonov bilan hammualliflikda yaratgan "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida fanlarning paydo bo'lishi, fanlar sistemasi, fanlar tasnifi, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o'rni haqida batafsil to'xtalib o'tgan va tilshunoslik fani deyarli barcha fanlar bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatib bergan. Bu haqida shunday fikrlarni yozadi: "Hozirgi davrda o'zbek tilining barcha sathlari bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud. Oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun tavsifiy xarakterdagi darslik va qo'llanmalar yaratildi. Bu darslik va qo'llanmalarda o'zbek tilining fonetikasi, morfemikasi, so'z yasalishi, leksikologiyasi, morfologiyasi va sintaksisi yuzasidan izchil ma'lumotlar berildi." [2] Ushbu qo'llanmaning "Kirish", "Sodda gap" qismi professor A.Nurmonov, "Gapda shakl va mazmun", ("Sodda gap va qo'shma gap") qismi professor N.Mahmudov tomonidan yozilgan.

Nizomiddin Mahmudovning "Til tilsimi tadqiqi" nomli kitobi ham bugungi kunda tilshunosligimizda katta amaliy ahamiyatga ega. Mazkur kitobda struktur tilshunoslikning yuzaga kelishi, uning yo'nalishlari, til tilsimi sinoatlari, til talqinlarida muntazamlik va mutanosiblik ehtiyoji, olamning lisoniy manzarasi, so'z o'zlashtirish va milliylik, o'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni haqida keng yoritilgan. Tilshunoslik haqida o'z fikrini bildirar ekan: "Til har qanday xalqning dunyolarga bermaydigan muqaddas boyligidir. Xalqning butun uzun umri davomida yiqqan-tergan dunyosi ana shu boylikda o'z tajassumini topgan. Bu boylikka qilingan har qanday dahl yoki nopisandlik uning sohibi bo'lgan xalq nafsoniyatini, hamiyatini paymol qilish bilan barobar tarzda qabul qilinadi." [3], - deydi tilshunos olim.

Nizomiddin Mahmudovning tilshunoslikdagi muhim ishlaridan biri boshqa yo'nalishlarga nisbatan keyinroq rivojlanib kelayotgan lingvosinergetika sohasida olib borgan izlanishlaridir. Sinergetikaning rivoji va shakllanishi natijasida ko'pgina sohalarda tabiiy fanlarga aloqador qonuniyatlarning umumfalsafiy, metodologik asosga aylanib

borayotganligi kuzatilmoqda. “Bugungi kunda dunyo aqliy tajribasining taraqqiyotini turli fanlar integratsiyasiz tasavvur etib bo’lmaydi, bugungi globallashtayotgan dunyoda ilmiy integrativ jarayonlar juda katta sur’at bilan kechmoqda”[4] Tilshunoslikda bu metodning shakllanishi tilning xolis va mukammal tadqiqi yo’llarini topishga bo’lgan ehtiyoj natijasidir. “Tarixiy xotirasiz - kelajak yo’q” deyilganidek, ona tilimizning taraqqiyoti va rivoji - uning tarixini, kelib chiqishini, asrlar davomida qanday o’zgarishlarga uchraganligini, hozirgi shakliga kelguncha qancha yo’llarni bosib o’tganligini o’rganish bilan bevosita bog’liq. Professor N.Mahmudovning ta’kidlashicha, har bir fanning hozirgi holatini chuqur o’rganish, uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog’lab olib borilganidagina kutilgan samarani beradi. Demak, kishilarning aloqa vositasi bo’lgan tilning ichki tuzilishi, tuzilish birliklari, bu birliklarning ichki jarayonda voqealanishi, tilning jamiyat bilan munosabati, til va tafakkur munosabati, tillarning geneologik va tipologik muammolari bilan shug’ullanuvchi “Tilshunoslik nazariyasi” bilan bu muammolarning o’rganilish tarixi masalalarini yoritib beruvchi “Tilshunoslik tarixi” o’zaro uzviy bog’liqdir.

Nizomiddin Mahmudovning yaratgan o’quv qo’llanmalarida o’zbek tilining tarixini chuqur bilishga imkon yaratildi. O’zbek tilshunoslarining dunyo tilshunoslik fanining rivojiga qo’shgan hissalar, jahon ilm-fanida Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg’ariy, Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi qomusiy bilim egalarining lingvistik qarashlari, o’zbek tilshunosligining shakllanish va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Professor Nizomiddin Mahmudov tilshunoslikning ko’plab sohalarida ilmiy izlanishlar olib borgan. Yuqorida aytib o’tilgan lingvosinergetika, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvistik tadqiqot metodologiyasi sohasidagi ishlari buning yorqin dalilidir. Shu jumladan, tilshunos olim o’zining “Til qanday paydo bo’lgan?”, “Til va ma’naviyat” nomli maqolalarida ham lingvomadaniyatshunoslikka oid fikrlarini bayon qilib o’tgan. Tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov o’zbek tilshunosligiga o’ziga xos maktab yarata oldi desak mubolag’a bo’lmaydi, albatta. Negaki, uning rahbarligida bir qancha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilinganligi buning yorqin isbotidir. Xususan, olimning o’zi ham “эллипсис в узбекском языке” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini va “Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Shu bilan birga professorning o’rta ta’lim maktablarining V - IX sinflari uchun mo’ljallangan “Ona tili” darsliklari va akademik litseylar uchun esa 3 jildlik “Hozirgi o’zbek adabiy tili” darsliklari yillar davomida biz yoshlar uchun asosiy dars qo’llanmalari sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash o’rinliki, professor Nizomiddin Mahmudov butun hayoti davomida o’zbek tilshunosligi fanida alohida yo’nalish yaratib, o’ziga xos meros qoldirib, ona tilimizning rivojiga chinakam hissa qo’shib kelmoqda. Nizomiddin Mahmudov o’zbek tili taraqqiyotiga o’zbekona ilmiy qarashlar bilan boyitdi, uni yanada takomillashtirdi.

A.Nurmonov haqli tarzda e’tirof etganlaridek, N.Mahmudov “hech qanday baqiriq-chaqiriqlarsiz, ayyuhannos solmasdan, o’zidan oldingi tilshunoslar qoldirgan ilmiy merosga hurmat bilan yondashgan holda, o’zbek tilining boshqa sistemadagi tillardan farq qiladigan o’ziga xos ichki tomonlarini ishonarli dalillar asosida yoritib berishda o’ziga xos yo’ldan

borib, havas qilishga arzigulik katta muvaffaqiyatlarga erishdi va haqli ravishda o'zbek tilshunosligining ustuniga aylandi".[6] Olim o'zbek tilshunosligiga qo'shgan xissasini benihoyatda kattaligi sababli faqat qisqagina o'z mulohazalarimizni keltirdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.10.
- 2.Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis// O'qituvchi. – T., 1995. – B.232.
- 3.Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi// Mumtoz so'z. – T., 2017. – B.5.
- 4.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.15.
- 5.Yo'ldoshev M., Andaniyozova D. Zarif so'z ziyorati// Anlam kitap. – Anqara., 2022. – B.14.
- 6.Isog'aliyevna, Y. S. (2024). AXIOLOGICAL FEATURES OF THE CONCEPT OF "GOODNESS". International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 1163-1167.
- 7.Yigitaliyeva, S. (2022). GLORIFICATION OF "GOODNESS" IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. Scienceweb academic papers collection.
8. Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. Mug'allim.
- 9.Yigitaliyeva, S. (2021). Linguistic analysis the concept of GOODNESS. Scienceweb academic papers collection.
- 10.Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari. Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar.
- 11.Yigitaliyeva, S. (2023). KONSEPT VA UNING LINGVISTIKADAGI TALQINI. Scienceweb academic papers collection.